



SHEROBOD DOSTONCHILIK MAKTABINING SHAKILLANISH TARIXI VA TARAQQIYOT TAMOYILLARI

Xushbaxtova Dilnoza Jaylov qizi

Termiz davlat universiteti, adabiyotshunoslik:
o'zbek adabiyoti mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6468628>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-aprel 2022
Ma'qullandi: 10- aprel 2022
Chop etildi: 14- aprel 2022

KALIT SO'ZLAR

doston, baxshixilik,
Sherobod dostonchilik
maktabi, Alpomish,
Go'ro'g'li, chechanlik.

ANNOTATSIYA

Bu maqola orqali xalq og'zaki ijodining yirik janri bo'lgan dostonlarimizning hozirgi kungacha sayqallanib yetib kelishida Sherobod dostonchilik maktabining benazir xizmatini ommaga yetkazish va shu bilan birgalikda bu maktabdan yetishib chiqqan baxshilarimizning mashaqqati benihoya ekanligini ko'rsatishdir.

Dostonlarda xalqimizga xos bo'lgan yuzlab fazilatlar insonparvarlik, vatanparvaflik, xalollik, to'griso'zlik, mardlik, mehr-oqibat, sadoqat tarannum etildi. Baxshilar odamlarni ezgulikka chorlaganlar, do'mbira ohangi doston matni orqali kishilar qalbiga yo'l topganlar. O'lmas qadriyatlarimiz yillar davomida qadirlanib, bugungi kunda ham e'zozlanishida aynan doston va doston aytuvchilarimizning buyuk hissasi bor. Bu borada Respublikamiz madaniyat-ma'rifat xodimlarining xizmatlarini ham astoyidil e'tirof etish kerak, albatta. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2018-yil 1-noyabrda "Xalqaro baxshichilik san'ati festivallari o'tkazish to'g'risidagi qaroridan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri ham shu deb o'ylaymiz.

Ta'bir joiz bo'lsa, bu festival dunyoga o'zbekning o'zligini yana bir karra namoyish etdi. Uning dunyo miqyosida o'tkazilishi baxshichilikning san'at sohasidagi o'rnini yanads yuksakroqqa ko'tardi. Bu qaror va bo'lib o'tgan xalqaro

festival xalq og'zaki ijodining dunyo miqyosidagi ulkan bayrami deb tariflansa arzigulikdir. Madaniyatga aloqador kishilarning, umuman, barcha xalqlarning qalbiga tinchlik, ozodlik, mehr-muhabbat ziyosini sochdi.

Dostonchiligimiz, baxshichiligimiz tarixini, mashhur baxshilarimiz ijodiyfaoliyatini o'rganishga keng yo'l ochib berdi. Ular o'rganilib xalqimizga taqdim etilmoqda.

O'zbek xalqi o'tmishi juda uzoq zamonlarga taqaladi. Buyuk alloma AbulqosimFirdavisiyning "Shohnoma" asaridagi qahramonlar bunga guvoh. Doston qahramonlaridan biri Rustam ("Rustami Doston" nomi bilan mashhur) turkiy xalqlar bilan yelkadosh bo'lib kelgan qirqdan oshiq qavm va urug'larning ajdodlaridan hisoblanadi. Usharq xalqlari adabiyoti tarixidagi ulug' shaxslardan biri deb talqin etiladi. Biz bunday qahramonlar kechmishlari orqali olis moziydagi ulug' ajdodlarimiz yashash



tarzi, urf-odatları, orzu-armonları haqida keng tasavvurga ega bo'lamiz.

"Go'ro'g'li" va "Alpomish" dostonlarida o'tmishdagi xalqlarning milliy urf-odat udumlari kuylanib kelingan. "Rustamxon", "Kuntug'mish", "Shirin bilan Shakar", "Yozi bilan Zebo", "Tohir va Zuhra", "Qirqqiz", "Oysuluv", "Malla savdogar" va boshqa dostonlarning bizgacha yetib kelishida baxshilarimizning xizmati beqiyosdir. Bu og'zaki ijod namunalari tunganmas xazinadir. Xazinaki, zamonlar o'tgan sari jozibalibroq, salmoqliroq bo'lib boraveradi. Vaqti zamonlarda Tilla kampir va Jasoq shoir, Amin baxshi va Sherna baxshi, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Islom shoir Nazar o'g'li, Abdulla shoir Nurali o'g'li, Po'lkan shoir Muhammadqul Jonmurod o'g'li, Sherna baxshi va Umr baxshi Safar o'g'li singari daho dostonchi baxshilar bu xazinani boyitganlar. Ularning nomlari umrboqiy bo'lib xalq qalbidan joy olgandir.

Yangi davrning betakror baxshichilik maktabi sifatida tilga olinayotgan Sherobod dostonchilik maktabiga ilk tamal toshini qo'ygan insonlardan biri, Shubhasiz, Sherna baxshi Beknazar o'g'lidir. Bu maktabning hozirgi kundagi tengsiz namoyondasi Sherna baxshi nevarasi Xushboq baxshi Mardonaqul o'g'lidir.

Sherobod dostonchilik maktabi — O'zbekiston Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarining bir necha tumanlari, Tojikiston va Turkmanistonning janubiy sarhadlarida yetishib chiqqan yuzlab baxshilarni birlashtirgan o'zbek dostonchilik maktabi. Surxondaryo va Qashqadaryoda dostonchilik an'alarining izchil rivojlanishi bugungi kunlarda ham davom etmoqda. Shuning uchun ham bu maktab vakillaridan 1940-yillarda yozib olingan dostonlarda dostonchilikning

nisbatan quyi bosqich unsurlari, badiiy tafakkurning uncha rivojlanmagan shakllari uchraydi. 1960-yillardan boshlab esa an'analarning muayyanlasha borishi, ma'lum ma'noda kitobiylikka intilish kuchayadi. Bunda iste'dodli xalq baxshisi Qodir Rahim o'g'lining (1936—1985) xizmatlari katta bo'ldi. Sherobod dostonchilik maktabidan Qosimko'r, Shernazar Beknazar o'g'li, Mardonaqul Avliyoqul o'g'li, Umir Safar o'g'li, Normurod baxshi, Ahmad baxshi, Nurali Boymat o'g'li, Mamadrayim baxshi, Yusuf O'tagan o'g'li, Eshqobil baxshi, Bo'riboy Ahmad o'g'li, Qodir Rahim o'g'li kabi o'nlab dostonchilar yetishib chiqdi. Bugungi kunda Xushboq Mardonaqulov, Shoberdi Boltayev, Boborahim Mamatmurodov, Qora va Chori Umirovlar, Qahhor Qodir o'g'li, Abdunazar Poyonov kabi bir qancha baxshilar dostonchilik an'alarini davom ettirmoqdalar. Bu maktab vakillaridan yozib olingan "Oltin qovoq", "Malla savdogar", "Zayidqul", "Ollonazar Olchinbek", "Oychinor", "Sherali", "Kelinoy" kabi qator dostonlar O'zbekistonning boshqa joylarida yashab o'tgan baxshilar repertuarida uchramaydi.

Xushboq baxshining aytishicha, Sherna baxshi 1866-yil Sherobod bekligiga qarashli Azon qishlog'ida Beknazarboy oilasida tavallud topgan. U 92 bo'li o'zbekning Qo'ng'iro't urug'iga mansub, ochamoyli shoxidan. Ota-bobosi yashab o'tgan yurt-Sherobod muzofoti. Baxshining bobosi Xolmo'min Sherobod bekligining yasovulboshchisi bo'lgan. Otasining suruv-suruv qo'ylari bo'lib bola ba'zan cho'ponlarga ergashib mol arqasidan ketib qolardi. Shunday kunlarning birida cho'ponlarning e'tiborsizligi oqibatida adashib, bir o'ngirda uxlab qoladi. U qancha vaqt o'tganini bilmaydi. Bir payit kimdir



yelkasidan turtganida uyg'onib ketadi qarasa, oppoq libosli, oq dastorli, qo'lida qahrabo hasa tutgan bir mo'ysafid turibdi. Sherna tush ko'rayapman deb o'ylab, ko'zlarini uqalaydi. Yo'q, yaxshilab qarasa, ko'rganlari tush emas ekan. Ilkis o'rnidan turib salom beradi. Mo'ysafid alik olib: " Sen odobli bola ekansan. Qani, ayt- chi, manglayinga beraymi, tanglayingami?"- deb so'raydi. Bolakay o'ylanib, agar manglayimga desam, qo'lda tayog'i bor ekan, bir urib mayib qilib qo'yadi. Bu yer ovloq, otam uzoqda bo'lsa deb, qo'rqqanidan, tanglayimga bering, - deydi. Shunda nuroniy: " Bo'lmasa, og'zingni och", -deydi. Sherna og'zini ochadi. Hayajondanmi, qo'rqibmi, shu payitda ko'zi yumilib ketadi. Bobo uning o'ziga tuflyadi. Sal fursaddan keyin ko'zini ochib qarasa, bobo yo'q . U hayron. To'satdan butun azoyi badani muzlab ketadi, birozdan keyin esa qiziy boshlaydi....

Uyda ham goh tayoq, hoh chop olib qo'shiq aytib yuraverdi. Beknazarboy bolasiga halaqit qilmaydi. Ammo, Sherna ovqatni ko'p yeydigan bo'lib qoladi. Ota-ona o'g'lining bu holatidan vahimaga tushib,mullaga o'qitib, dam suv ichirib ham " yeb- to'yimas"ligi qolmabdi. Folchi-yuqushnochga ko'rsatibdi, chiroq yoqtirishibdi, lekin nafi tegmabi. Oxiri Fozilnoma tabibga olib borishibdi. U boladan, ota-onasidan yeb-to'yimaslik holatini so'rabdi. Oxirida Shernadan, nima yesang to'yasan, deb so'rasi, u " Faqatgina qo'shiq aytganda to'yaman",- debdi. Shundan keyin Fozil tabib, " O'g'lingiz mashhur shoir bo'ladi. Sira-sira g'am yemang",- deb taxminini aytibdi. Shunday qilib Sherna hech joydan qaytmay sozandalik qilaveribdi.

Shu orada Turkmaniston tomknlardan izzatli, taqvodor mehmonlar Beknazarboy

qo'rg'oniga qo'nib o'tishadi. Qo'noqlar orasida bir ulug' sifat mo'ysafid bolaga sin solib qaraydi:" Bolaga Xizir nazari nazari tushganga o'xshaydi, uning oti Shernazar bo'lsin",- deb duo qiladi. Shu-shu u Shernazar atalib ketadi.

Vohamiz dostonchiligi va baxshilari to'g'risida gap ketganda, eng avvalo, Sherobod dostonchilik maktabi alohida tilga olinib, baxshilari haqida to'xtalishadi. Bu haqida dastlab 1929- yilda folklorshjnos olim Mansur Afzalov Ekspeditsiyasi faoliyati alohida diqqatga molik. O'shanda bu maktab maxsus o'rganilgan. Sherna baxshi ijodiga alohida e'tibor berilgan. 1945-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tashabbusi bilan tashkil etilgan ekspeditsiyada Qashqadaryo-Surxondaryo vohalarida ham namunali ish olib boradilar. Shunda Mansur Afzalov: "Sherna o'z davrining eng so'zga chechan, badihago'y san'atkor xalq shoirlaridan bo'lib, shogird yetishtirishda ham Shernaga tenglashadigan ustoz bo'lmagan. Shernazar shoir Qashqadaryo va Surxondaryo, hatto Turkmanistonning ayrim shahar va qishloqlariga borib, doston aytib, tinglovchilarni hayratda qoldirgan. Xalq orasida o'zi ijod qilgan dostonlari bilan ma'lum va mashhur bo'lgan. Masalan, Mardonaqul Avliyoqul o'g'li- Sherna shoirning jiyani, Ahmad, Chori, Saodat juzboshilar, Normurod Shernazar o'g'li, Jo'ra Eshmirza o'g'li, Xudoyqul Loqay, Esan Shomurod o'g'li va boshqa talantli xalq shoirlarini tarbiyalab yetishtirgan Shernazar Beknazar o'g'lidir" (Afzalov M. O'zbek xalq baxshilari.-T.: "Sharq yulduzi" 1946.N_0 10- 11).

O'zbek folklorshunosligining asoschilaridan biri Hodi Zarif bir ekspeditsiya davridagi izlanishlarining maxsuli haqida shunday yozadi: " 1929-



yildayoq etnolingvistik ekspeditsiya davomida Janubiy O'zbekistonda yashovchi bir necha baxshilar bilan uchrashish, ular bilan ishlash sharafiga muyassar bo'lingan edi. Biroq ularning ko'pgilligi qo'rquv natijasida ishonchsizlik bilan qarab ekspeditsiya a'zolariga hech narsa aytib bermadilar. Yerli aholi esa mashhur dostonchi Sherna haqida va uning tarbiyasini olgan Sherobod dostonchilarini maqtashardilar. Bu baxshilar xalq dostonchiligining ahamiyatini tushunmagan ba'zi bir mahalliy- ma'muriy hodimlar tomonidan qo'rqitib qo'yilgan edi". Mana shu ekspeditsiyada ham Sherna baxshining dongdorligi ulug'lanib, Sherobod poetik maktabi tilga olinganligi bejiz emas, albatta.

Mamlakatimizning boshqa hududlaridagi avvaldan mavjud bo'lgan poetik maktablariga nisbatan Sherobod dostonchilik maktabining salohiyatli va samaraliroq ekanligini takidlamoqchimiz. "Sherobod poetik, ya'ni dostonchilik maktabining asoschisi Shernazar Beknazar (1866-1920) o'g'lidir" (Ergashev A. Qashqadaryo- Surxondaryo dostonchiligi. --T.: "Fan". 2008.)

"Qamay dostonchilik maktabining ildizi bir tomondan Sherobod dostonchilik maktabibining vakillari nomi bilan bog'liq... Hozirgi vaqtda Sherobod poetik maktabining ta'sir doirasi Respublikamizning boshqa joylaridagi poetik maktablardan o'ta kengligi bilan ajralib turadi. Agar Bulung'ur, Narpay, Nurota, yohud Juma baxshilari o'zlari mansub dostonchilik san'tini bir-ikki tuman hududidagina tarqatgan bo'lsalar, ayrim faktlar misollarni istesno qilganda, Sherobod maktabi vakillari butun Qashqadaryo, Surxondaryo vohalaroda, Turkmaniston va Tojigistonni o'zbeklar yashaydigan hududlarigacha tarqalib,

shuhrat qozongan, o'sha yerlarda dostonchilikning yashovchanligiga zamin hozirlaganki, bu Janubiy O'zbekistonda "folklorning o'z geografik ufqlari bor"ligini asoslaydi. (Ergashev A. Qashqadaryo- Surxondaryo dostonchiligi. --T.: "Fan". 2008. 22-23-betlar).

Sherna baxshi doston va termalar aytish bilan birga "Ayriliq", "Sherna kuyi", "Kelinoy", "Sarvinoz", "Ollonazar-Olchunbek", "Iztirob", "Dard" va boshqa ko'plab kuylar chalib yurgan.

Mardonaqul baxshidan folklorshunoslar Mansur Afzalov, Muzayyana Alaviya, Abdimo'min Qahhorov, Chori Hamroyev singari xalq og'zaki ijodining fidoyilari terma, dostonlar yozib olishgan. 1945-yil akademik shoir G'afur G'ulom Mardonaqul baxshi Avliyoqul o'g'luga "O'zbekiston xalq baxshisi" degan guvohnoma bergan. Baxshining "Erkenja" nomli ertak kitobi nashir qilingan. Taniqli baxshi 1890- yilda dunyoga kelgan bo'lsa, 1965-yili 25-dekabrda vafot etgan. Qabri Sherobodning Cho'michli mahallasidagi Abu Iso Muhammad at-Termiziy ziyoratgohi yaqinidagi qabristonda.

Usta Avliyoquldan sag'ir qolgan Mardonaqulga Sherna baxshi qizi Sharbatoyni beradi. Mardonaqul baxsh va Sharbatoylarining uch nafar o'g'llari (Qosim, Mamarasul, Xushboq) va to'rt nafar qizlari (Qurbonoy, Begimoy, Omongul, Xonimoy) bo'lgan. Baxshining uch o'g'li ham bolalikdan do'mbira chertib, qo'shiq aytib, otameros san'atga ixlos va mehr bilan qaragan. Taqdirning o'yini bilan Qosim (1939-yilda), Mamarasul (1940-yilda) Sovet Armiyasiga safarbar qilinib, keyin Ikkinchi Jahon urushiga qatnashib halok bo'ladi. Xushboq baxshi Hozirgi kunda 81 yoshni qarshilayabdi. Hamon ijod dargohida darg'lik qilmoqda. Folklorshunos Abduolim



Ergashev: "O'zbek dostonchiligining rivojlanishida Sherobod poetik maktabining alohida o'rni bor. Dunyoda dostonchilik san'ati so'ngan bugungi kunda ham faqat Sherobod maktabining vakillari bu qadimiy an'anani jonli jarayonda saqlab turibdi. Ana shu baxshichilikning XIX asr o'rtalaridan hozirgacha barhayotligi ushbu kitob muallifi Xo'shboq Mardonaqulov nomi bilan bog'liq", degan edi (Ko'ngling o'zga bo'lmasin. Qarshi- "Nasaf" nashriyoti. 2009).

Baxshichilik san'atining asosiy tamoyillari:

- ichki ovozda aytish;
- chechanlik;
- do'mbira chalish;
- badixago'ylik kabilardir.

Ichki ovoz-bu xususiyat baxshilarda uchraydi. Bu ovoz uchun baxshidan juda katta kuch talab etiladi. Ichki ovozi- bor insongina baxshi deyiladi. Ichki ovoz bo'g'izning ham qaridan ya'ni yurakdan chiqishi kerak. Do'mbirani olib, baxshi " hayyareeeeeee!!!!!!",- deb boshlaganda ichki

ovozni sozlayotgan bo'ladi. Shu bois ham baxshilarga hamma ham shogird bo'lavermaydi.

Chechanlik-bu hozir javoblik, nutqning ravonligi, fikrning tezligi desak xato bo'lmaydi. Biz ko'p bora "chechan" so'zini eshitganmiz. Xalq orasida ham gapni topib joy-joyida gapiradiga insonlar "chechan" deyilgan.

Do'mbira chalish- bu sozni chalish uchun baxshi ko'ngil torlarini cherta bilishi lozim. Negaki, Do'bira yagona notasiz chalinadigan cholg'u hisoblanadi. Undan chiqqan kuylarni his etish orqali o'rganish mumkin. Baxshi bor uchki sezimlarini ishga solgan holda do'mbirani chertadi.

Badixago'ylik-bu mahorat va mohirlik demakdir. Baxshida , albatta, badixago'ylik bo'lishi kerak. Sababi katta-katta davralarda tayyorgarliksiz, davra qatnashchilarining talabi bilan istalgan insonga yoki buyumga terma qo'qish kerak, shu vaqtda baxshiga badixago'yligi ya'ni mahorati yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Jirmunskiy V. M.,ZarifovX. T., O'zbekskiy narodniy geroicheskiy epos, M, 1947;
- 2.Karriev B. A., Epicheskiye skazaniya o Kerogli u tyurkoyazichnix narodov, M., 1968;
- 3.Muradov M., Epos "Gorogli", T., 1984;
- 4.Go'ro'g'li dostonlari, to'rt jildli, 1—4-jildlar, T., 1996—1999; Intizor. 5.Nurali, T., 1964; Gulixiromon, T., 1965;
- 6.Ergashev A. Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchiligi. --T.: "Fan". 2008.
- 7.Afzalov M. O'zbek xalq baxshilari.-T.: "Sharq yulduzi" 1946.N_0 10- 11;
- 8.Ko'ngling o'zga bo'lmasin. Qarshi- "Nasaf" nashriyoti. 2009.